Materiallar to’plami · Conference Proceedings
QATAG‘ON QURBONLARI: TARIXIY XOTIRA, MILLIY O‘ZLIK VA MA’NAVIY MEROS
10 September – 10 October 2026
UDK 373.2

FARG‘ONA VODIYSIDA MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASALARI SANITAR-GIGIYENA HOLATI (1918-1980 yillar)

Odinaxon Akmaljon qizi Xolmirzayeva*
FDU mustaqil izlanuvchisi
✉ botirovaodina974@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbuda O‘zbekiston hududida, jumladan, Farg‘ona vodiysida 1918-1980 yillarda faoliyat yuritgan maktabgacha ta’lim muassasalari, ulardagi xodimlar faoliyati, muassasa ishchilari va tarbiyalanuvchilari uchun yaratilgan shart-sharoit hamda ularning muhofazasi masalalari imiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar, qolaversa, hayotiy xotiralar asosida yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar

“Maktabgacha tarbiya yuzasidan dekloratsiya”, “Hujum”, kolxoz, sovxoz, maktabgacha ta’lim, sil, gipertorofiya, zahm.

DOI: 10.5281/zenodo.23279203

KIRISH

1917-yil 20-noyabrda xalq komissarlari tomonidan “Maktabgacha tarbiya yuzasidan dekloratsiya” ma’lum qilindi. Bunda: “Bolalarni ijtimoiy bepul tarbiyalash bolaning birinchi tug‘ilgan kunidan boshlanadi”, - deyilgan edi. Maktabgacha ta’lim butun xalq maorifi tizimining birinchi bo‘g‘ini va ajralmas qismi bo‘lib qoldi. 1919-yilda e’lon qilingan davlat dasturlarida xalq maorifi sohasida ijtimoiy tarbiyani yaxshilash va xotin-qizlarni ozod etish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlarini shakillantirish haqida fikr yuritildi. Davlatning bu umumiy siyosiy yo‘li asnosida Turkiston ASSR maorifi xalq komissarligi oldida davlat maktabgacha ta’lim muassasalari tarmoqlarini yuzaga keltirish, metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash va boshqa mas’uliyatli vazifalar paydo bo‘ldi[19, 32-b].

Turkistonda dastlabki davlat maktabgacha ta’lim muassasalari 1918-yilning ikkinchi yarmida ochila boshlandi. 1918- yil 20-oktabrda Turkiston ma’orifi xalq komissarligiga qarashli respublikadagi maktabgacha ta’lim sohasida barcha tadbirlarni amalga oshirish uchun ma’muriy organ sifatida maktabgacha tarbiya bo‘limi shakillantirildi.

Maktabgacha tarbiya ishchilari malakasini oshirishga qaratilgan maktabgacha tarbiya dasturining ishlab chiqilishi, bu sohadagi muhim bosqich bo‘ldi. 1927 yilda boshlangan ayollarning hujum siyosiy harakati tufayli bolalarning bolalar bog‘chasiga berish hollari yanada oshdi. Kasaba uyushmalari va yirik fabrika-zavodlar ko‘magida ishlayotgan ayollarga yana bir yordamchi tashkilot – yozgi sog‘lomlashtirish maydonchalari ta’sis e’tildi[17, 27-b].

XX asr 30-yillaridan boshlab maktabgacha tarbiya dasturlarida bolalar bog‘chalarining tozalik va metodik yordam holatini tekshirish yo‘lga qo‘yildi. Bu tekshirishlar natijalariga ko‘ra xonalar va maydonchalarning jihozlanmaganligi, asbob-uskunalar bilan ta’minlanmaganligi, tozalik me’yorlariga amal qilinmasligi ma’lum bo‘ldi[19, 35-b].

Yuqoridagi holatning asosiy sababi bolalar bog‘chalari sonining jadal sur’atda oshirish zaruriyatida edi. XX asr Turkiston ayollarining “Hujum” harakatidan so‘ng O‘rta Osiyoda sanoat ishchi kuchlari salmog‘i ortdi. Biroq, undan foydalanishga turkiy xalqlarning serfarzandlik, bola tarbiyasiga bo‘lgan yuksak e’tibor, farzand

tarbiyasida asosiy rolni ayollar bajarishi an’analari to‘siq bo‘lib qoldi. Muammoning yechimi esa, albatta , maktabgacha tarbiya muassasalari edi. Bunday tez fursatda sifatli, talab drajasidagi bog‘chalarni qurishni imkoni mavjud emas edi. Lekin, SSSRning tizimli “besh yilliklari” qanday bo‘lmasin mazkur dargohlarni ochishni taqazo etdi.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetning 1971-yil 17-avgustdagi 396-son qarori bilan “Kolxozlarning doimiy maktabgacha tarbiya bolalar muassasalari to‘g‘risida” gi nizomi tasdiqlangan[16, 121-b]. Kolxozlarning doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari (yaslilar, bolalar bog‘chalari, yasli-bog‘chalar) 2 oylikdan tortib to 7 yoshgacha bo‘lgan bollarni ijtimoiy tarbiyalash va kolxozchi onalarning qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida faol ishtirok qilishlari uchun sharoit yaratib berish maqsadida tashkil etilgan. Nizomga ko‘ra bu muassasalarning vazifasi maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga muvaffaqiyat bilan o‘qishga tayyorlashni nazarda tutib, ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashdan iborat bo‘lgan. Ammo, aslida ushbu muassasalar faqatgina yosh bolali onalarni qishloq xo‘jaligi ishlariga jalb qilishning samarali usuli vazifasini o‘tab berdi, xolos.

Ushbu turdagi maktabgacha ta’lim muassasalari kolxoz a’zolari umumiy yig‘ilishi (vakillar yig‘ilishi) ning qarori bilan, bolalarning shu muassasalarda tarbiyalanishi uchun tegishli shart-sharoit mavjud bo‘lganidagina ochilishi qonunan belgilab qo‘yilganiga qaramay, aksariyat hollarda bunga amal qilinmaydi. Muassasa uchun tanlangan bino deyarli hech bir talabga javob bermagan. Chekka qishloqlarda tashkil qilingan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalarida guruhlar soni kam bo‘lgan va bitta tarbiyachi shtati bitta guruhga haftasiga 6 kun mobaynida ertalabki 6^{00} dan toki kolxoz ishchilari daladan qaytgunicha ishlagan. Ushbu turdagi bog‘chalarning smetasi nizomga ko‘ra umumiy tipdagi bog‘chalar bilan bir xil bo‘lsada, aslida tubdan farq qilgan[21]. Kolxozlarning maktabgacha tarbiya muassasalarida kolxozchilarning bolalari tarbiyalangan. Nizomga asosan shu muassasalardan uzoqda yashovchi bolalar maxsus jihozlangan transport bilan muassasaga keltiriladi va uylariga eltib qo‘yilishi kerak bo‘lgan. Biroq, nizomning ushbu bandiga deyarli amal qilinmagan. Boisi, Kolxoz byudjeti deyarli nochor bo‘lib, uning ko‘p mablag‘lari ayrim sohta raqamlar uchun sarflangan(Chunki, kolxozlar uchun belgilangan rejalar aslida olish mumkin bo‘lgan hosildan ancha yuqori bo‘lgan). Kolxoz hududida yashab turgan xizmatchilarning: o‘qituvchilar, tibbiyot xodimlari va boshqalarning bolalari ham maktabgacha tarbiya muassasasiga qabul qilingan. Maktabgacha tarbiya muassasalariga bolalarni qabul qilish va tarbiyalash shartlari kolxoz boshqaruv kengashi tomonidan belgilangan.

Ayrim shaharlar va chekka hududlardagi tumanlar tasarrufidagi doimiy maktabgacha ta‘lim muassasalarida XX asrning 80 – 90 yillarda ham, aksariyat, hollarda hojatxonalar yetishmagan. Masalan, Toshkent ilmiy tadqiqot institutining Qo‘qon tayanch punkti qoshida (Bog‘dod tumanida) ochilgan 37-sonli “Nihol” bolalar bog‘chasida atiga ikkitagina bir xonali hojatxona, Lelingurad tumanida joylashgan “Hamza” savxoziga qarashli maktabgacha tarbiya muassasida bittagina bir xonali hojatxona mavjud bo‘lib, hojatxonaga borish yo‘lagi ushbu vazifani o‘tagan[21]. Natijada, bog‘cha hovlisida issiq kunlarda noxush hid, turli hasharotlardan va ular sabab tarqaladigan turli yuqumli kasalliklardan muassasa xodimlari ham bolalar ham aziyat chekkan. Buni natijasida ushbu davrda gepatit kasalligi savxoz aholisi orasida keng tarqalgan[10].

Maktabgacha tarbiya muassasalari sanitar jihatdan qurilish meyorlari to’g’risidagi hujjatning yangi tahriri SSSR Davlat bosh sanitariya inspektorining o‘rinbosari tomonidan 1962 yil 12 iyunda tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra birlashgan bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari havoni ifloslantiruvchi gavjum transport magistrallari va sanoat korxonalaridan olisda, mustaqil yer maydonida joylashishi lozim bo‘lgan[11]. Biroq, ushbu hujjatda keltirilgan gavjum transport magistrallaridan birmuncha olisda tashkil etilishi to’g’risidagi bandigagina barcha maktabgacha ta’lim muassasalari joylashishida e’tbor qaratilib, qolgan talablar nazardan chetda qoldirilgan. Hujjatning qolgan bandlariga markaziy hududlarda amal qilinib, qishloq joylarda amal qilinmagan. Ko‘pgina kolxozlar tasarrufida tashkil etilgan bog‘chalar dala maydoni o‘rtasida paxta punkitlari binolarida joylashib, xonalarda kuz va qish oylarida namlik ortib ketgan. Namlik ortishi esa bolalar orasida turli o‘pka kasalliklarini keltirib chiqargan[10]. Xususan, Farg‘ona viloyatining Quvasoy, Toshloq, Quva tumanlari bog‘chalarga tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasi past darajada bo‘lib, kolxoz raislari va partiya tashkiloti birinchi kotiblari bu masalalarga jiddiy e’tibor qaratmaganlar. Natijada, ushbu davrda bolalar orasida o‘pka shamollashi, sil, zahm va bezgakka chalinish hollari ko‘p uchragan. Bir yillik o‘lim qaydnomalarining 50 foizini maktab-

gacha yoshdagi bolalar tashkil etgan[9; 11]. Shuningdek, maktab yoshidagi bolalar o‘limi ham ro‘yxatning 20 foizini tashkil qilgan[11]. 1960-yili Quva tumani miqyosida 150 nafar bola vafot etib, shundan, 69 nafari 1 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 31 nafari 1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 23 nafari 2 yoshdan 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 18 nafari 3yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 9 nafari 7-14 yoshgacha bo‘lgan bolalar tashkil qilgan[13]. Vafot etgan bolalardan atiga 40 nafari shifoxonada davolash choralari ko‘rilayotgan paytda vafot etib, 110 nafari uyda hech qanday tibbiy choralar ko‘rilmay vafot etgan[11].

XX asrning 70 – 80 yillarda ham viloyatning chekka tumanlaridagi tibbiy yordam darajasi hamda sanitariya- gigiyenik ahvol talab darajasidan anchayin past bo‘lgan. 1977-yilgi arxiv ma’lumotlaridan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak ushbu davrda ham o‘lim qaydnomasi hamda kasallik varaqalarining asosiy qismini turli yuqumli kasalliklardan hamda shamollashning xilma-xil ko‘rinishlaridan kasallangan bemorlar, tashkil etgan[11]. Ular orasida maktabgacha yoshdagi bolalar ko’pchilikni tashkil qilgan. Kolxozlar tasarrufidagi ko‘pgina muassasalarda toza ichimlik suvi ham bo‘lmasdan usti ochiq holdagi yasama hovuzlarda to‘plangan suvdan foydalanilgan. Ushbu hovuzlar ko‘p hollarda muassasa hovlisida joylashib undan chiqadigan oqava suv yo‘lidan bolalar yuz-qo‘lini yuvishda, yoz kunlarida esa hovuzdan kattaroq yoshdagi bolalar cho‘milish maqsadida foydalanilgan. Bu holatlar ko‘plab kasalliklarni tez fursatda keng tarqalishiga zamin yaratgan. Qolaversa, hovuz bilan bog‘liq ko‘plab baxtsiz hodisalar ham tez-tez uchrab turgan. Masalan, Lelingirad tumaniga qarashli Hamza savxozi tasarrufidagi 37-sonli “Yulduzcha” kolxoz doimiy maktabgacha ta’lim muassasasida 1975-yilda 3 yoshli tarbiyalanuvchi Boqiyeva Tamanno Yakubovna muassasa hovlisidagi hovuzga yiqilib tushishi natijasida bosh miyya qismi qattiq shikastlangan. Oqibatda, bolada ruhiy nosog‘lomlik aqliy jihatdan ortda qolish holati kuzatilgan. Shunga qaramasdan ushbu hovuzdan to bog‘cha 1991 yilda yopilgunigacha bo‘lgan vaqtda ham foydalanish davom etib, hech qanday ehtiyot choralari ko‘rilmagan[21].

Yoz va kuz oylarida tashkil qilingan mavsumiy maktabgacha tarbiya muassasalarida bolalar deyarli kolxoz qozonidan ovqatlanishgan, qolaversa, 2-3 yosh va undan yuqori bolalar dalada kolxozchi ayollar yonida yurgan. Chaqaloqlarga esa dalada belanchaklar osilib ayollar navbat bilan(aksariyat, kasal ayollar) qaragan.Ekin maydonlariga turli xil kimyoviy moddalar maxsus samalyotlarda yuqoridan odamlar ustidan sepib ketilgan. Oqibatda, aholi orasida kimyoviy zaharlanish hollari tez-tez uchrab turgan. Emizikli bolalar esa ko‘p hollarda bir ona tomonidan oziqlantirilgan[21]. Ushbu holat keyinchalik turli irsiy kasalliklarni yuzaga keltirishi mumkinligi hech kimni qiziqtirmagan.

XULOSA

Xulosa qiladigan bo‘lsak, maktabgacha ta’lim tizimining vujudga kelishi hamda urush va undan keyingi davrlarda keskin sonining ortishiga asosiy omil bu ayol-qizlarning sanoat hamda qishloq xo‘jaligi ishlariga keng ko‘lamda jalb qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan. Qolaversa, urush davrida ko‘plab bolalarning ko‘chirib keltirilishi, cho‘l zonalarning o‘zlashtirilishi natijasida ishchi kuchiga bo‘lgan talabning ortishi muassasalarga bo‘lgan ehtiyojni ikki hissa oshirgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro‘xati

1. O‘zbekiston Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabr “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5198-son farmoni;

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 19 oktyabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda so‘zlagan nutqidan.

3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 488 b.

5. 94-фонд. Годовые отчёты о работе управлении и селов Министерства Просвещения УзССР. (1945-1980 гг.)

6. 1125-фонд.Отдел народного образования Ферганского областного исполкома и Наркомата просвещения, с 1946 г. Министерства просвещения УзССР г. Фергана. (1938-1982 гг.)

7. 604-фонд. Материалы по личному составу детских яслей Ферганского городского отдела

Народного образования города Ферганы. (1941-1950 гг.)

8. 664-фонд. Скобелевский городской отдел народного образования испольнительного комитета совета рабочих, крестьянских и красноармейский депутатов города Скобелева. (1938-1963 гг)

9. 2494-фонд. Детский сад № 1 города Маргилана (1951-1954 гг)

10. 3058-фонд. Бағдод тумани халқ маориф бўлими. (1974-1975гг.)

11. 2350-фонд. Маргиланское городское народное образование. (1946-1990гг.)

12. Баратова М. Қишлоқларда болалар боғча ва яслилари тармоқларининг кенгайиши. – Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – 378 б.

13. Воспитание детей в сезонных дошкольных учреждениях. (А.Говорковой таҳрири остида). – Москва: “Просвещение” нашриёти, 1988. 267– С.

14. Бадалова М. Из истории развития дошкольного воспитания в Узбекской ССР (1946-1965 гг.). – Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата педагогических наук. –Ташкент, 1974. – 68- Б.

15. Тўхтаҳўжаева И. Боғчаларда болаларни янги программа асосида тарбиялаш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1975. 167-б .

16. Мактабгача тарбия справочниги.– Т., 1974. 521-б.

17. Hoshimov K., Inomov M., Nishonova S., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – Toshkent: Tarbiyachi, 1996. B-27.

18. Madayev O., Sobitova T. Xalq og‘zaki poetik ijodi. – T.: “Sharq”, 2010, 68-bet.

19. Tosheva N.Maktabgacha ta’lim-tarbiyani tashkil etish. – Buxoro:Kamolot, 2022. .B-32.

20. Тишабоева И. Ўзбекистонда мавсумий болалар боғчалари ва уларнинг фаолияти (1945-1970 йиллар). // Ўзбекистон миллий университети хабарлари. – 2021,№ 1.3.1, Б-22-24.

21. Ботирова Шоирахон опа – Бағдод тумани 37 сонли МТМ собиқ тарбиячиси (1988-1990 йиллар) Учкўприк тумани, Катта-қашқар МФЙ, Истиқлол кўчаси, 68 уй, 53 ёш.